

## AYTILMAY QOLGAN SO'Z FOJIASI

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz tili 2-fakulteti 1-bosqich talabasi  
Nurmatova Azizaxon Jahongir qizi  
nurmatovaazizaxon@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynbergning "So'z" she'ri timsolida shoirning falsafiy qarashlari va so'zga bo'lgan yuksak mas'uliyati tadqiq etiladi. Shuningdek, she'rdagi har bir misra orqali muallifning vaqt va so'z qadri borasidagi o'ziga xos shoirona xulosalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Aleksandr Faynberg, o'zbek she'riyati, falsafiy lirika, so'z mas'uliyati, vaqt va makon, badiiy san'at, lirik fojia, sukunat falsafasi.

## THE TRAGEDY OF UNSPOKEN WORDS

*Uzbekistan State World Languages University  
English language faculty 2  
Year 1 student Nurmatova Azizaxon Jakhongir qizi  
nurmatovaazizaxon@gmail.com*

**Abstract:** This article explores the philosophical views and high sense of linguistic responsibility of the People's Poet of Uzbekistan, Alexander Feinberg, through the lens of his poem "The word". Additionally, through each line of the poem, the author presents unique poetic conclusions regarding the value of time and the word.

**Keywords:** Alexander Feinberg, Uzbek poetry, philosophical lyrics, responsibility of the word, time and space, artistic mastery, lyrical tragedy, philosophy of silence.

## ТРАГЕДИЯ НЕВЫСКАЗАННЫХ СЛОВ

*Узбекский Государственный Университет Мировых Языков  
Факультет английского языка 2  
Студентка 1-го курса Нурматова Азизахон Жахонгировна  
nurmatovaazizaxon@gmail.com*

**Аннотация:** В данной статье на примере стихотворения Народного поэта Узбекистана Александра Файнберга «Слово» исследуются философские взгляды и высокая ответственность поэта перед силой слова. Также в каждой

строке стихотворения изложены своеобразные поэтические выводы автора о ценности времени и слова.

**Ключевые слова:** Александр Файнберг, узбекская поэзия, философская лирика, ответственность слова, время и пространство, художественное мастерство, лирическая трагедия, философия тишины.

Adabiyot — bu soʻz sanʼati, ammo barcha shoirlar ham soʻzning masʼuliyatini birdek his qila olmaydi. Oʻzbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg nafaqat oʻzbek va rus adabiyoti chorrahasida ijod qilgan ulkan shoir, balki har bir misrani hayot va mamot masalasiday koʻradigan ijodkor edi. Uning sheʼriyatida dunyo shunchaki ranglar va tovushlardan iborat emas, balki chuqur maʼnaviy qonuniyatlar asosiga qurilgan makondir.

Insoniyat taraqqiyoti bugun shunday nuqtaga keldiki, vaqtni tejash uchun eng tezkor texnologiyalar oʻylab topildi. Poyezdlar, samolyotlar va raqamli aloqa vositalari masofalar qisqarishiga xizmat qiladi. Biroq, bu tezkorlikning ortida inson ruhiyatining eng nozik va eng muhim qismi — vaqtida aytilgan soʻz qadri unutilib borayotgandek. A. Faynberg oʻzining mashhur “Soʻz” sheʼrida aynan mana shu muammoni — moddiy kechikish bilan maʼnaviy kechikish oʻrtasidagi farqni yuksak mahorat bilan ochib berdi.

Taniqli oʻzbek shoiri Abdulla Oripov “Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland soʻzlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi, ... rus tilida soʻzlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorumizga samimiy qoʻshiq kuylashi mumkin emas.” - deb taʼriflagan edi<sup>1</sup>.

Poyezd kechikishi oddiy voqea,  
Samolyotni kutib ichikadi koʻz.  
Haqiqiy baxtsizlik, katta fojia –  
Mabodo kechiksa kutilyotgan soʻz.

A. Faynberg "So'z" she'rining birinchi bandida kundalik hayotimizda duch keladigan muammolardan - poyezd va samolyotning kechikishi shunchaki jismoniy noqulaylik tug'dirishini, vaqtimizni o'g'irlashi mumkinligini va aslida vaqtida aytilmagan so'z eng katta baxtsizlik fojia ekanligini ochiq-oydin ifodalab bergan.

Soʻngan gulxan uzra boʻlgandek pushmon,  
Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun

<sup>1</sup> Oripov A. Aleksandr Faynbergning yorqin xotirasiga//yuz.uz portali

Kechikkan soʻz gʻarib, yigʻlaydi yomon,  
Uni kecha kutgan odamlar uchun.

Ikkinchi badda shoir, vaqtida aytilmagan so'zni o'chib qolgan gulxanga - endi kerak bo'lmagan issiqlik manbayiga nisbatan pushaymonlik hissi kabi, hamda hech kimi yo'q kulbaga mahzun boqib turgandek tasvirlaydi.

Shuningdek, kechikkan so'zni tashxis san'ati orqali shaxslantiradi, uni g'arib insonga o'xshatib, kecha o'sha so'zni kutib turgan insonlar uchun "yomon yig'lashi"ni mahorat bilan izohlaydi. Shoir bu misralari orqali kishi aytmoqchi bo'lgan so'zni o'z vaqtida aytishi kerakligini, ertaga u so'zning befoyda bo'lib qolishi mumkinligi haqida o'quvchiga dakki beradi.

She'rning so'nggi badda shoir kechikkan so'zni tabiat hodisalari bilan bog'lashga harakat qiladi: u tufayli o'rmonlar yetim qolishini, nihoyasiz yerning peshonasi sho'rligini qaysidir ma'noda begunoh farzandlarga o'xshatadi.

Kechikkan soʻz bois oʻrmonlar yetim,  
Bepoyon yerlarning peshonasi shoʻr.  
Qabrlar qoshida soʻz ham besoʻz, jim,  
Ruhlar bezovtayu qismat koʻzi koʻr.

Shoir ushbu misrada yana bir bor tashxis san'atidan mohirona foydalanadi. Chunki ba'zi holatlarda oilalar buzilishiga birgina "kechir" so'zi yetishmasligi sabab bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, qabr oldida sukunat hukmronligini, uning yonida hattoki so'z topish noilojligini va bundan ruhlar bezovtalanishini, adolat yo'qligini juda ta'sirli ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda Aleksandr Faynberg tomonidan yozilgan "So'z" she'ri har bir insonni vaqtning qadriga yetishga, bugunning gapini ertaga qoldirmaslikka undaydi. Zero, hamma narsa uchun ikkinchi imkoniyat berilishi mumkin, lekin kechikkan so'z uchun bunday imkoniyat yo'q.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Faynberg A. Qoralanmaga qasida: she'rlar. Toshkent: „Adabiyot“ nashriyoti, 2021. – 92b.
2. Oripov A. Aleksandr Faynbergning yorqin xotirasiga [Elektron resurs]. – Ziyozuz portali. URL: <https://n.ziyouz.com>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
4. <https://fayllar.org/aleksandr-arkadivich-faynberg-hayoti-ijodiningbugungikundagi-v2.html>